

## MIRZO ULUG‘BEK – DAVLAT ARBOBI VA BUYUK OLIM

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasи*

*katta o‘qituvchisi*

**Bobomurod Tillayev**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Yuldasheva Sayyora Amanjanovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Mirzo Ulug‘bekning davlat arbobi va olim sifatidagi faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda Ulug‘bekning Samarqand hokimi va Movarounnahr hukmdori sifatida olib borgan adolatli siyosati, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shtan hissasi yoritilgan. Ulug‘bek tomonidan barpo etilgan madrasalar va Samarqand rasadxonasining ilmiy ahamiyati, shuningdek, uning astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" asari tahlil qilinadi. Maqlolada Ulug‘bekning ilm-fan rivojidagi uslubiy yondashuvi, ilmiy kuzatuvlari va dunyoviy ta’limni rivojlantirishdagi faoliyati alohida ta’kidlangan. Uning boshqaruv va ilm-fanni uyg‘unlashtirishdagi muvaffaqiyati davlat arbobi va olim sifatidagi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** davlat arbobi, olim, muqaddas siymolar, vatan himoyachisi, saodat.

Mirzo Ulug‘bek – o‘z davrining buyuk olimi, madaniyat homiysi va donishmand davlat arbobi sifatida jahon tarixida chuqur iz qoldirgan siymolardan biridir. U ilm-fan, ayniqsa astronomiya va matematika sohalarida erishgan yutuqlari bilan nafaqat Sharqda, balki G‘arb olamida ham tan olingan. Biroq Ulug‘bekning shon-shuhratni faqat ilm-fan bilan cheklanmaydi. U davlatni boshqarishda, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirishda, madaniyat va ma’rifatni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynagan. U o‘z davrining murakkab siyosiy sharoitida ilmni ustuvor qadriyat deb bilgan hukmdor sifatida yuksak hurmatga sazovor bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-mart kuni Eronning Sultoniya shahrida tug‘ilgan. U Temuriylar sulolasining vakili bo‘lib, Amir Temurning sevimli nabirasi, Shohruh Mirzoning o‘g‘li edi. Yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa hisob, geometriya va astronomiyaga katta qiziqish bildirgan. Otasi Shohruh ham ilmparvar shaxs bo‘lib, o‘g‘lining bilim olishiga har jihatdan imkon yaratgan. Ulug‘bekni o‘sha davrning eng bilimdon olimlari o‘qitgan. Shu boisdan ham u juda yoshligidan ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan, olimlar bilan muloqot qilishni xush ko‘rgan, ilmiy mushohadalarni qadrlagan.

Mirzo Ulug‘bek yoshligidan boshlab Movarounnahrdagi siyosiy hayotda ishtirok eta boshlaydi. 1409-yilda u Samarqand hokimi etib tayinlanadi va keyinchalik butun Movarounnahda siyosiy hukmronlikni qo‘lga oladi. Bu paytda u hali juda yosh bo‘lsa-da, davlat boshqaruvi, adolatli siyosat yuritish, ichki tartibni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Mirzo Ulug‘bek o‘z boshqaruv davrida davlatning iqtisodiy barqarorligiga katta e’tibor bergen. Soliq tizimini tartibga solgan, savdo yo‘llarini tiklagan, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlagan. Ayniqsa, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda u yuksak g‘ayrat ko‘rsatgan.

Ulug‘bekning eng buyuk xizmatlaridan biri – Samarqandni yana bir bor ilm-ma’rifat markaziga aylantirganidir. U 1420-yilda Samarqandda mashhur Ulug‘bek madrasasini qudiradi. Bu madrasa nafaqat diniy bilimlar, balki tabiiy fanlar, matematika, astronomiya, falsafa, tarix kabi sohalarda ham ta’lim beruvchi muassasa edi. Bu yerda o‘z davrining eng mashhur olimlari dars bergen. Jumladan, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi yirik allomalar Ulug‘bek atrofida jamlangan. Ularning ilmiy ishlari keyinchalik jahon faniga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ulug‘bek ilm-fanning rivojiga boshqaruvchi emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilm bilan shug‘ullanuvchi olim sifatida xizmat qilgan. U Samarqandda o‘zi asos solgan rasadxona orqali astronomik kuzatishlarni olib borgan, o‘z zamonasining eng aniq astronomik jadvallarini tuzgan. Ulug‘bek rasadxonasida dunyodagi eng katta kvadrant qurilgan bo‘lib, u orqali yulduzlarning joylashuvi, harakati, yil fasllarining o‘zgarishi va boshqa ko‘plab

osmon hodisalari o‘rganilgan. Bu rasadxona bugungi kunda ham o‘z me’moriy va ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan.

Ulug‘bekning eng mashhur asarlaridan biri “Ziji Jadidi Kuragoniy” nomli yulduzlar jadvalidir. Ushbu asarda 1018 ta yulduzning joylashuvi, ularning harakati, sayyoralar koordinatalari, Quyosh va Oy tutilishlari kabi ma’lumotlar aniq ilmiy asoslar bilan berilgan. Bu asar G‘arb olimlari tomonidan “Ulugh Beigh’s Tables” nomi bilan tanilgan va bir necha asrlar davomida astronomiya fanining asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ulug‘bek tomonidan o‘lchangan yil uzunligi – 365 kun, 6 soat, 10 daqiqa va 8 soniya bo‘lib, bu zamonaviy fan tomonidan aniqlangan ko‘rsatkichdan atigi 1 daqiqa farq qiladi. Bu esa o‘sha davrda bunday aniqlikdagi hisob-kitobning naqadar ulug‘vor yutuq ekanidan darak beradi.

Mirzo Ulug‘bek astronomiya bilan birga matematika sohasida ham yirik tadqiqotlar olib borgan. U sinuslar jadvalini tuzgan, trigonometriya qonunlarini rivojlantirgan, geometriya masalalarini mukammal tahlil qilgan. Uning ilmiy ishlari o‘z davrida ham, keyingi asrlarda ham G‘arb va Sharq olimlari tomonidan o‘rganilgan, tarjima qilingan va darslik sifatida qo‘llanilgan. Shuningdek, Ulug‘bek tarix, falsafa, adabiyot kabi sohalarga ham befarq bo‘lmagan. U tarixiy asarlar yozgan, turli xalqlarning madaniyati va urf-odatlarini o‘rganishga katta e’tibor bergen.

Mirzo Ulug‘bekning siyosiy faoliyati ham e’tiborga loyiq. U Movarounnahrda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga harakat qilgan. Ichki nizo va fitnalarga qarshi kurashgan. Biroq uning ilmga berilishi, olimlar bilan ko‘p vaqtini o‘tkazishi, davlat ishlaridan ba’zan chetda qolishi ayrim amaldorlarning noroziligidagi sabab bo‘lgan. Bu noroziliklar, ayniqsa o‘g‘li Abdulatif tomonidan qo‘llab-quvvatlangan fitnaga aylanadi. 1449-yilda Ulug‘bek o‘g‘li Abdulatifning buyrug‘i bilan shafqatsizlarcha o‘ldiriladi. Bu tarixdagi eng achchiq sahifalardan biridir. Ilm-fanga butun umrini bag‘ishlagan olim va adolatli hukmdor o‘z yaqinlari tomonidan qurban qilinadi.

Ulug‘bekning vafoti ilm-fan uchun og‘ir yo‘qotish bo‘ldi. Uning boshlagan ko‘plab ishlarini davom ettirishga imkon qolmadi. Biroq uning ilmiy merosi yashab qoldi. Asarlari keyinchalik turli tillarga tarjima qilinib, Yevropada astronomiya va matematikaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. G‘arb olimlari Kopernik, Tycho Brahe, Kepler singari olimlar uning jadval va kuzatishlaridan foydalangan. Ulug‘bekning ilm-fanga qo‘shgan hissasi bugungi kunda ham baholab tugatib bo‘lmaydi. Bugungi kunda Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy va madaniy markazlar mavjud. O‘zbekistonda uning nomi oliy o‘quv yurtlariga, ilmiy-tadqiqot institutlariga berilgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda Ulug‘bek haykallari qad ko‘targan. Uning rasadxonasi rekonstruksiya qilinib, muzeyga aylantirilgan. Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi YUNESKO tomonidan keng nishonlangan. Bu esa uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Mirzo Ulug‘bek hayoti bizga shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy buyuklik ilmga bo‘lgan sadoqat, halollik, adolat va insonparvarlik bilan belgilanadi. U ilm-fan va siyosatni uyg‘unlashtirgan holda jamiyatni yuksaltirishga intilgan. Uning hayot yo‘li nafaqat tarixiy o‘rnak, balki bugungi avlod uchun ma’naviy saboqdir. Ulug‘bek har qanday sharoitda ham ilmga tayanish, aql bilan ish tutish, adolatni saqlash zarurligini amalda ko‘rsatib bergan. Shuning uchun ham u nafaqat buyuk astronom, balki chinakam ma’naviy peshvo, milliy g‘ururimizning ramzi bo‘lib qoladi. Mirzo Ulug‘bek nomi tarix sahifalarida oltin harflar bilan yozilgan bo‘lib, uning merosi abadiy yashaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг кадимги даврдан Россия босқинига кадар. - Т.: Шарқ, 2001.
2. Sagdullayev A. S. O‘zbekiston tarixi. - T.: VNESHINVESTPROM, 2019.
3. B.O.To‘rayev/ MUHAMMAD TARAG‘AY Mirzo ULUG‘BEK (1394 - 1449) Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2018 y. - 64 b.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. - T: «Sharq», 2010. - 512 b.